



GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR TARBIYASI VA VIRTUAL HAYOT TA'SIRI

Soliyev Bobur Javlon o'g'li

Namangan muhandislik texnologiya instituti iqtisodiyot fakulteti

iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6606447>

ARTICLE INFO

Received: 10th May 2022

Accepted: 14th May 2022

Online: 31th May 2022

KEY WORDS

Globallashuv, internet, axborot urushi, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoq.

ABSTRACT

Globallashuv jarayonida internet manbalari va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanib, shaxsning siyosiy savodxonligini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lmoqda. Ushbu maqolada globallashuv bosqichida insonlarning yashash tarzi, turmush jarayoni va ularning noto'g'ri ong ta'siriga tushib qolmasliklari haqida fikr mulohazalar qisqacha yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri belgilab olgan davlatlar qatorida har sohada yuksalish sari qadam qo'ymoqda. Endilikda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati haqidagi konsepsiyalarni axborot sohasidagi islohotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Global tarmoq imkoniyatlari keng ekanini uning bugungi yoshlar orasida juda tez ommalashganidan bilish mumkin. Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan internet tarmog'i axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda an'anaviy ommaviy axborot vositalarining informatsion texnologiyalar asrida o'z mavqeini saqlab qolishi ko'p jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu borada Yurtboshimiz alohida ta'kidlab o'tganlaridek: «... bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga

erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi...»[1, 127].

Milliy nihilizm va manqurtlikka muhtalo bo'lgan yoshlar bilan Yangi Renessans sari odimlash mushkul. Mazkur muammolarni yechishda, avvalo, ommaviy axborot vositalari faoliyatini muvofiqlashtirish lozim. Ko'rsatuv, eshittirish va matbuot nashrlari, shuningdek, internetdagi milliy tarmoq manbalarida berilayotgan ma'lumotlar sifatiga, ayniqsa, materiallar mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish kerak.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda [2, 119]. Ta'kidlash kerakki, turli



yot saytlar, internetdan tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba'zan harbiy harakatlar bilan amalga oshirib bo'lmaydigan voqealar sodir bo'lishi mumkin. Bunday axborot xurujlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashi va e'tiqodini salbiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi. Yoshlarimizning virtual olamda faollashuvi ko'p holatlarda salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Afsuski, tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi audio, video va multimedia mahsulotlari savdosi avj olgani, turli reklamalar, kompyuter, telefon o'yinlarining ko'payib borayotgani bugungi yoshlar ongini zaharlamoqda. Ularning barchasi o'smir yoshlarimizning psixologik holatiga bosim o'tkazishning samarali vositasi sanaladi. «Axborot urushi» xavfi tahdid solayotganini ham jiddiy e'tiborda tutib, barcha ezgu amallarni qo'llash davri keldi. "Axborot urushi" yakuniy maqsadga erishish yo'lidagi vosita sanaladi. Ayrim reklamalar axborot o'rniga uydirma tarqatish, boshqalarni yolg'on axborotga ishontirish imkonini beradi. Kundalik hayotda uchraydigan fitna va bo'honlar ham "Axborot urushi"ning primitiv ko'rinishidir. Reklamalar orqali tavsiya etilayotgan turli dori mahsulotlarini bilib-bilmay iste'mol qilayotgan insonlar ham talaygina. Bunday insonlarni ko'p aldovlar sabab o'z sog'ligidan shikoyat qilganini ham kuzatish mumkin. Ommaviy axborot vositalari faqat ezgu maqsadlar yo'lida xizmat etmog'i darkor.

Yurtimizda chiqarilayotgan har bir qonun inson manfaati uchun xizmat qiladi.

Shunday ekan, virtual olam ham omma orasida ma'naviy-axloqiy pok jihatlarni shakllantirish va ezgu-maqsadlar yo'lida xizmat qilsin.

Turli o'quv treninglar, vebinarlar tashkil etish, so'rovnomalar o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning internetdan, mobil aloqa tarmoqlaridan o'rinli va samarali foydalanishlari uchun muassasa rahbarlari, professor-o'qituvchilar, psixologlar tomonidan ommaviy-axborot vositalari bilan ta'limning uzviyligini ta'minlash hamda mavzuga doir o'quv qo'llanma ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq. Yurtimizda «Eng yaxshi matbuot kotibi», «Faol mahalla raisi», «Eng yaxshi rahbar», «Eng faol ma'naviyatchi», «Eng faol tadqiqotchi olim» ko'rik-tanlovlarini muntazam o'tkazilishi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etmoqda. Yot axborot hamda uning salbiy ta'sirini oldini olishda mutaxassislar tomonidan turli chora-tadbirlar, ijtimoiy-psixologik dasturlar, o'quv adabiyotlar yaratish orqali o'quvchilarda axboriy-psixologik immunitetni shakllantirish lozim.

Umuman olganda, axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yoshlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham tushuntirib o'tish darkor. Yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur, ammo salbiy oqibatlarni ham hisobga olib, ular ongiga ezgulik tushunchasini singdirish, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 485 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 174 b.
3. Odilqoriyev X. T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2002. – 117 b.